
ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 9

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 9

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)*
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.09.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.09.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ЛУТФУЛЛАЕВА ДУРДОНА
Тилшуносликда миллат ассоциатив портретини аниқлаш методикаси..... 7

IBRAGIMOV JAVLON YORMATOVICH
Nutqiy sistema lisoniy imkoniyatlar voqelanishi ko‘zgusida..... 12

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Uslub atamasining kelib chiqishi va uning til
taraqqiyotidagi turli davrlarda qo‘llanishi..... 15

XUJAMKULOVA MAXBUBA BOBONAZAROVNA
Darak gaplarda nutqiy akt tushunchasi 19

ABDULLAYEV DAVRONBEK
Lingvistik talqinda leksik ma’no o‘zgaruvi badiiy
nutqning daraja vositasi sifatida 22

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Odil Yoqubov asarlarida ruhiy holat so‘zlari va ularning
olam obrazini shakllantirishdagi ahamiyati 25

KADIROVA ZAYNURA ZAYNIDINOVNA
Filologik terminologiyaning mohiyati va xususiyatlari 30

НОРБОЕВА ДИЛАФРЎЗ ЖУМАҚУЛОВНА
Соҳавий терминлар ва уларнинг тил хусусиятлари 36

ISMOILOVA MAMLAKAT QURBONOVNA
Ijtimoiy tarmoq marketingi terminlarining o‘rganilish tarixi 39

MENGLIYEVA MUNIRA
Aspektual ma’no ifodalovchi leksemalarning ingliz izohli
lug‘atlaridagi talqinini takomillashtirish yo‘llari 42

МАМАСОЛИЕВ ИЛХАМ УБАЙДУЛЛАЕВИЧ
Приспособление иностранной лексики в русском языке
на основе материалов русскоязычных СМИ Узбекистана 46

МУНДАРИЖА

XODJIYEV YUSUF NORQULOVICH
O‘zbek tilida “ona” konsepti misolida “oilaparvarlik” xarakterining ifodalanishi 50

ALIMBEKOVA MAVJUDA XALIMJON QIZI
Fitrat korpusi lemmalarini avtomatik aniqlashda yuzaga kelgan muammolar 56

ADABIYOTSHUNOSLIK

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Понятие и особенности литературного цикла 59

ТУРСУНОВА НАСИБА
Мотам маросими ва иримлар талқинига доир 63

DAVLATOVA SHAHNOZA MUHAMMADIYEVNA
Jahon adabiyotida yurisprudensiya va sud
jarayonlari badiiy talqin etilgan asarlar tahlili 67

TANGIROV RO‘ZIBOY
Shukur Xolmirzayev hikoyalarida o‘zbek xarakterining badiiy ifodasi 69

QURBONOVA SARVINOZ GULBOYEVNA
Nodim Namangoniyning Qo‘qon adabiy muhitidagi o‘rni 73

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

NUTQIY SISTEMA LISONIY IMKONIYATLAR VOQELANISHI KO'ZGUSIDA

Ibragimov Javlon Yormatovich,
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti dotsenti v.b., filologiya fanlari doktori

Tartib va *tartibsizlik* kategoriyalari tavsifi an'anaviy sistemaviy yondashuvda, albatta, yangicha talqinlardagidan farq qiladi. "Ko'p hollarda "obyekt" so'zi bolalar o'yinchog'i yoki chiqindilar uyumi kabi tasodifiy, tartibsiz narsa, predmetlar to'plamiga nisbatan ham qo'llanadi".[1] Bunda tartibsizlik oddiy "betartiblik", "to'da" ma'nolarida, u bugungi kunda ochiq sistemada mavjudligi e'tirof etiladigan "muvozanatsizlik", "xaos" ma'nosida emas, albatta. Sinergetik yondashuvda barqarorlik bilan birga beqarorlik, muntazamlik bilan bir qatorda nomuntazamlik, tartib bilan bir qatorda xaos sistema munosabatlaridagi asosiy belgilar sifatida qaraladi. "Chunki aynan sinergetikada muvozanatdan yiroq bo'lgan sistemalarga ham alohida e'tibor beriladi. Agar tadqiq qilinayotgan sistemaga ma'lum miqdordagi energiya berilsa yoki tashqi aloqalar yuklatilsa, boshqariladigan parametrning o'zgarishi hisobiga beqarorlik yuzaga kelib, sistema yangi holatga o'tadi. Ya'ni borliqda makroskopik tuzilmani tavsiflovchi, tartib parametri sifatida xizmat qiluvchi moddalar jamlanmasining uncha katta bo'lmagan soni yuzaga keladi"[2].

Borliqda ochiq va yopiq sistemalar, ularning o'zaro farqli xususiyatlari mavjud. "Koinotning ba'zi qismlari haqiqatan ham mexanizm kabi harakatda bo'ladi. Bu yopiq sistema, fizik koinotning ozgina qismini tashkil etadi. Shuning uchun ham ko'pgina sistemalar ochiq sistema sifatida namoyon bo'ladi. Ular o'zaro ta'sirlashish natijasida atrof-muhit bilan energiya yoki modda, informatsiya almashinadi".[3] Garchi sinergetika tabiiy fanlar doirasida vujudga kelgan bo'lsa-da, uning asoschilari ochiq sistemalar sifatida tabiiy sistemalar bilan birga sotsial sistemalarni ham tushunishadi.[4] Bu esa "tabiiy fanlarda shakllangan metod va metodologiyani hech bir shartsiz tilshunoslikka tatbiq qilish maqsadga muvofiq emas, chunki tabiiy fanlardagi o'rganish obyektidan tamoman farqli o'laroq tilshunoslikda, obyekt subyekt bilan aloqalantirilgan holda o'rganiladi"degan fikrlar tug'ilishiga ham sabab bo'lmoqda. Bunday qarashlar "butunicha tabiiy fanlar metodologiyasi izidan borish tilning o'zigagina xos bo'lgan jihatlarni tildan tashqariga chiqarib tashlaydi, inson omilini ham tildan xoli qoldiradi"[5] degan fikrlar ta'sirida vujudga kelgan.

Jamiyat ochiq, sotsial sistema ekan, sotsial sistemalarga daxldor, ontologik jihatdan sotsial bo'lgan hodisalar tizimi ham ochiq sistemalar sifatida qaraladi. Demak, tashqi muhit bilan uzviy bog'liq bo'lgan har qanday sistema – ochiq. Masalan, "fan ham ochiq sistema, u jamiyat bilan uzviy bog'liq. Fanga tashqi kuchlar katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham fanning rivoji jamiyatning ilmiy fikrlarga, g'oyalarga bo'lgan ehtiyoji bilan belgilanadi". Sotsial tizimlarning ochiqligi bugungi kundagi globallashuv sharoitida yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Muvozanatsizlik – ochiq sistemaning muhim belgilaridan. Muvozanatning buzilishi yangi muvozanatni keltirib chiqaradi, sistema esa yangi sifat bosqichiga o'tadi. Dialektik miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishi qonuni ham buning yorqin dalili. "Ba'zi ilmiy manbada dissipativ sistema ba'zan statsionar ochiq sistema yoki muvozanatsiz sistema ham deyiladi. Dissipativ sistema bu murakkab, ko'pincha xaotik tuzilmaning birdaniga paydo bo'lishi"[6].

Muvozanatsizlik sinergetikadagi chiziqsizlik bilan uyg'un. Muvozanatsizlik taraqqiyotning, rivojlanishning chiziqsiz turiga mansub. Taraqqiyotning formatsion tahlili ilmiy falsafiy yondashuv sifatida chiziqsiz

[1] Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. – М., Наука, 1971. – С. 12.

[2] Бозаров Д.М. Синергетика парадигмасининг фалсафий-методологик таҳлили: Филос. фанлари номзоди … дисс. автореф. – Т., 2010. – Б. 15.

[3] Бозаров Д. Синергетик парадигма. – Б. 40. Яна қаранг: Тоффлер Э. Третья волна: Пер. С анг. Э.Тоффлер. – М.: ООО "Изаделство АСТ, 2004. – 117 с.

[4] Николас Г., Пригожин И. Самоорганизация в неравновеснқх системах. – М.: Мир, 1979. – С. 156-157.

[5] Красных В.В. Точка над I или многоточие? (к вопросу о современной научной парадигме) // Языко сознание, коммуникация. Вып. 16. – М.: Мкспресс, 2001. – С. 5.

[6] Бозаров Д. Синергетик парадигма. – Тошкент: Тафаккур, 2010. – Б.52.

yondashuvni inkor qiladi. Formatsion yondashuvda taraqqiyot spiralsimon va faqat quyidan yuqoriga intiladi.[1] Yoki o‘zbek tilida bugungi kunda qaratqich va tushum kelishigi shaklining ko‘p holda og‘zaki nutqda farqlanmayotganligi, yozma nutqqa ham kirib borayotganligi tilning chiziqsiz rivojiga misol.

Tilda muvozanatning nisbatan barqaror ko‘rinishi lisoniy sathda mavjud. Deylik, grammatik shaklda kategorial va yondosh ma’no o‘zaro barqaror muvozanat asosida mavjud bo‘ladi. Bu esa grammatik kategoriya tizimida grammatik shaklning barqaror oppozitsiyalari hukm surishini ta’minlaydi. Masalan, zamon kategoriyasi umumiy grammatik ma’nosida “zamon” ma’nosi kategorial, “mayl” ma’nosi nokategorial (ya’ni yondosh) ma’no sifatida mavjud. Shu jihati bilan zamon umumiy ma’nosi mayl umumiy ma’nosi bilan barqaror ziddiyatga kirisha oladi. Ammo bu barqarorlikning o‘zgarishi, ushbu muvozanatning buzilishi, ya’ni miqdor o‘zgarishining sifat o‘zgarishiga o‘tishi qonuniga binoan, ya’ni zamon umumiy ma’nosidagi zamon kategorial ma’nosi kuchsizlanishi natijasida bu o‘zgarish meyor chizig‘idan o‘tsa, yangi sifat yuzaga keladi – “zamon” umumiy ma’nosi yo‘qoladi. Lekin bu – yuz bermaydigan imkoniyat. Nutqda grammatik shaklning ko‘chma ma’nolarda qo‘llanishida bu muvozanat buziladi. Masalan, son kategoriyasi lar shakli umumiy ma’nosidagi “miqdor” kategorial ma’nosi kuchsizlanishi natijasida “hurmat” ma’nosi kuchayib ketishi mumkin. Bunda endi *lar* shaklida yuqorida tilga olingan umumiy ma’no (lisoniy mohiyat)ni qidirish ma’qul emas. Leksema ko‘chma ma’noda qo‘llanar ekan, uning sememasi tarkibidagi atash semasi so‘nib, nutqiy voqelikka mos ravishda ifoda va vazifa semasi kuchayadi. “Masalan, *oltin yoshlik* birikuvida voqelangan oltin leksemasining “sariq tusli qimmatbaho noyob metallni ifodalovchi ot” sememasidagi “sariq tusli”, “metall”, “ot” semasi butkul so‘ngan bo‘lib, “kamyob”, “qimmatbaho” semasi kuchaygan va “ot” vazifa semasi “sifat” ma’no bo‘lakchasiga aylangan holda namoyon bo‘lgan. Biroq bundagi vazifa semasining o‘zgarishi nutqiy hodisa bo‘lgani sababli u sememaning ikkinchi turkumga ham xosligini ko‘rsatmaydi, balki boshqa turkumga xos vazifasini bajarishi deb tushunmoq lozim. Demak, leksemaning ko‘chma ma’noda qo‘llanishidagi ma’noviy modifikatsiyasini “semema semasining o‘zgarishi” deb baholash mumkin”.[2] Bu o‘zgarish ham lisoniy muvozanatning buzilishi va, bir vaqtning o‘zida, nutqiy muvozanatning yuzaga kelishi.

Sistemaning an’anaviy talqinida barqarorlik va o‘zgaruvchanlik turli sistemaning belgisi ekanligi, boshqacha aytganda, ular (ya’ni barqarorlik va o‘zgaruvchanlik)ning yaxlit emasligi e’tirof etilar edi.[3] “XXI asrning boshlariga kelib, insoniyat taraqqiyotida shu qadar ulkan o‘zgarish, ba’zan noan’anaviy jarayonlar sodir bo‘ldiki, falsafada, qolaversa, amaliyotda ham barqarorlik va uning o‘zini batamom boshqacha aks ettirish uchun imkoniyat tug‘ildi. Endilikda so‘z barqarorlik va o‘zgaruvchanlik tizimning ikki jihati, atributi ekanligi, ya’ni bir butunligi haqida borishi lozim”.[4] Sistemaga bunday yondashuv bilish metodologiyasining takomillashganligi, narsa va hodisa mohiyatiga chuqurlashishning kuchayib borishi natijasida yangicha tadqiq tayanchlarining vujudga kelayotganligi bilan bog‘liq. “Ma’lumki, keyingi paytlarda amaliyotda o‘z isbotini topgan sinergetik paradigmaga ko‘ra, jamiyat obyektiv ehtiyoj tufayli bir-biriga chambarchas bog‘liq yoki o‘zaro bog‘liqlikka mahkum segmentlar (qismlar) dan tashkil topadi. Shunday ekan, uning to‘laqonliligi ana shu qismlarning holatiga bog‘liq. Qismlarning bog‘liqligi, samaradorligi, yo‘naltirilganligi darajasidan bo‘lgan yig‘indi jamiyatda barqarorlik kasb etadi. Mabodo, bu qismlarning birortasi, biron bir sabab tufayli, zaiflashgan taqdirda barqarorlik susayib, jamiyat beqarorlikka yuz tutadi”.[5]

Modomiki, sistema rivojlanishda, taraqqiyotda ekan, unda o‘zgaruvchanlik sodir bo‘lmasligi mumkin emas. O‘zgaruvchanlik esa beqarorlik bilan ma’lum daraja uyg‘un.Masalan, tilning lisoniy sistemasi – barqaror tizimning yorqin dalili. Lekin uning diaxronik holatida tadrijiy o‘zgarish sodir bo‘lib turadi. O‘zgarish natijasi esa barqarorlashib boraveradi. Masalan, so‘z ma’nosidagi, fonetik strukturasidagi o‘zgarish, tejam qonuniyati asosida yuz beradigan qisqarish, til leksik strukturasining boyib borishi va hokazo. “Tilda lisoniy tiplarning stadial taraqqiyoti “nochiziq” taraqqiyot trayektoriyasiga ega bo‘ladi, ya’ni lisoniy tip muayyan vaqt dominantlik qiladi, tarixiy taraqqiyot jarayonida u sinergetikaning fluktuatsiya, bifurkatsiya, polifurkatsiya qonunlari asosida “egri chiziq” dinamikasi bo‘yicha rivojlanadi. Muayyan vaqt oralig‘ida avvalgi dominant lisoniy tip o‘rnini fakultativ lisoniy tip egallaydi, keyinchalik ushbu tip ham boshqa lisoniy tipga yon beradi. Shu tarzda lisoniy tip barqarorlik-beqarorlik, ustuvorlik-noustuvorlik, tartib-tartibsizlik kabi sinergetik paradigmaning asosiy tamoyillari asosida rivojlanish trayektoriyasiga ega bo‘ladi”.[6]

[1] Шермуҳамедова Н. Фалсафа. Дарслик. – Тошкент: ЎзМУ, 2014. – Б.362.

[2] Сайфуллаева Р., Менглиев Б. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Дарслик. – Тошкент: Фан ва технологиялар. 2010. – Б. 108.

[3] Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. – М.: Наука, 1971. – С. 12.

[4] Фалсафа. Қомусий луғат. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 45.

[5] Фалсафа. Қомусий луғат. Тошкент: – Шарқ, 2004. – Б. 46.

[6] Раҳимов А.У. Фузия лисоний типини квантитатив ва синергетик ёндашув асосида тадқиқ этиш (ўзбек тили мисолида): Филол.фанлари номзоди...дисс.автореф. –Т., 2009. – Б. 19.

Barqarorlik va o‘zgaruvchanlik lisonda bo‘lgani kabi nutqda ham sodir bo‘ladi. Faqat ular o‘zgaruvchanlikning davomiyligi va oniyligi bilan farqlanadi. Lisondagi barqarorlikni nisbiy tushunish bilan birgalikda, nutqdagi o‘zgaruvchanlikka ham nisbiylik xos ekanligini esda tutish lozim. Lison va nutq munosabati haqida gap ketganda, tilshunoslar tomonidan bu munosabat dialektikaning nisbatli kategoriyalari ko‘zgusida baholanadi.[1] Mualliflar bunda alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat kategoriyalarining falsafiy talqinlarida beqarorlik, o‘tkinchilik xususiyatlari ta’kidlanishiga tayanishadi. Zero, o‘zbek tilshunosligida lison va nutqni farqlashga doir ilk monografik tadqiqotlarda shunday metodologik ahamiyatli fikrlar berilgan: “Til birliklariga avvaldan barqarorlik, doimiylik va majburiylik xususiyati, nutq birliklariga esa vaqtinchalik va erkinlik xususiyati xos”.[2]

Nutqiy hodisadagi barqarorlik va o‘zgaruvchanlikning yaxlitligi lison va nutqning dialektik birligi qonuniyati bilan mustahkamlanadi. Lisoniy birlik sifatidagi leksema nutqda voqelanar ekan, unda o‘zi mansub lisoniy mohiyat saqlanadi. Aniqrog‘i, unda lisoniy mohiyat namoyon bo‘lmasligi mumkin emas. Ammo yondosh lisoniy yoki nolisoniy hodisalarning tajallilari miqdoriga mos ravishda u “hajman” o‘zgarish kasb etadi. Masalan, “semema o‘zining barcha nutqiy ko‘rinishlari uchun asos bo‘lib, har bir qo‘llanishida uning juz’iylashgan va matn, nutq sharoiti, so‘zlovchining maqsadiga bo‘ysungan holati kuzatiladi. [*O‘qimoq*] leksemasining sememasidagi “harflarni urishtirib ma’nosini tushunishga intilish” mohiyati boshqa nolug‘aviy vositalar tajallilari bilan to‘yingan holda takrorlanaveradi. ... [*qaramoq*] leksemasi ko‘makchi vazifasida qo‘llanganda, uning sememasi tarkibidagi “yo‘naltirmoq” semasi lisoniy va nutqiy hodisalarni bog‘lash vazifasini o‘taydi. Boshqacha aytganda, qaramoq ko‘makchisining [*qaramoq*] leksemasi hosilasi ekanligiga ishora qilib turadi”.[3]

Imkoniyatning voqelikka aylanishi nisbiy ravishda “ikki marta ko‘payish” deb ataladi. “Muhitga moslashish – organizm reaksiyasi, sistema komponentining o‘zgarishi muhitga taalluqli bo‘lib qoladi. Natijada, ikkiga ko‘paygan o‘z-o‘zini tashkil qiluvchi dinamik sistema yanada yuqori bosqichga ega. Shu tariqa o‘z-o‘zini tashkillashtiruvchi dinamik sistema iyerarxiyasi vujudga keladi. Nazarimizda u koinot kabi cheksiz”.[4] Til kabi sistemada ikki marta ko‘payish emas, balki umuman olganda ko‘payish haqida gap borishi kerak, deb o‘ylaymiz.

Lisoniy imkoniyatning parchalanishi va nutqiy hodisaga aylanishi substansial asosda keng va atroflicha, hatto monografik aspektda bayon etilgan. Tilshunos B.Mengliyev ta’kidlaganidek, lisoniy birliklar umumiy ma’nosi uning mohiyati sifatida nutqda voqelanar ekan, bunda umumiylikning xususiylashuvi bir necha oraliq “zina”lar asosida kechadi va turli “parcha”lar hosil bo‘ladi. Umumiy ma’noning bu parchalari farqlanishi va voqelikka aylanishida lisoniy sathlar hamkorlik qiladi va bunda ularning o‘rni va roli nisbati darajali munosabatda bo‘ladi. Masalan, leksema nutqda voqelanish uchun sintaktik qolipga tushadi, morfologik jihatdan o‘zini o‘zi shakllantiradi. Nutqiy parchalarning farqlanishida sathlarning bifurkatorligi turlicha bo‘ladi. Agar sintaksis leksemaning nutqqa kirishi va uning oraliq lug‘aviy ma’nosining farqlanishiga imkoniyat bersa, morfologiya uning shakllanishi uchun xizmat qiladi, xolos. Sintaktik qolipning ko‘magi leksemaning nutqqa kirishi bilan cheklansa, unda morfologiyaning ko‘magi ortadi. U endi nafaqat leksemaning shakllanishiga xizmat qiladi, balki uning oraliq bo‘g‘inlari farqlanishiga ham “yordamlashadi”, ya’ni sharoit yaratadi.[5]

Demak, nutqda lisoniy imkoniyat barqarorlikdan beqarorlikka o‘tib, bifurkatsiya hodisasi yuz beradi. Bifurkatsiya natijasida fluktuatsiya hodisasi ham yuz berishi mumkin. Fluktuatsiya natijasida yuz bergan ma’noviy ajralish umumiy ma’no kategorial tarkibiy qismining butunlay susayishi va buning oqibatida bu holat barqarorlashishi mumkin. Natijada yangi lisoniy birlik – omonim hosil bo‘lishiga olib keladi. Ko‘p ma’noli lisoniy birlik ma’nosidan birining uzilishi omonimni vujudga keltirishi esa fanda ma’lum.

Rezyume. Sistema talqini qanchalik rang-barang va bir-biriga zid bo‘lmasin, ular uchun barcha fanda e’tirof etilgan mutlaq yagona umumiy asos ham mavjud. Bu – sistemaning birdan ortiq unsuri o‘zaro taqozo va inkor etuvchilik munosabati asosidagi bog‘lanishi. Tilshunoslikda bu holat element (obyekt) ning o‘ziga xosligi bilangina farqlanishi mumkin. An’anaviy sistemaviy nazariyada element, munosabat tushunchalari bilan birga tartiblilik asosiy sistemaviy belgilardan biri sanaladi. Shubhasiz, ichki tartibga ega, o‘zaro bog‘liq qismlar va elementlar kuzatiladigan obyektlarni tizim deb atash mumkin. Nutqiy jarayon ham bundan mustasno emas.

[1] Сайфуллаева Р., Менглиев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили: Дарслик. – Тошкент: Фан ва технолагиялар, 2010. – Б. 33.

[2] Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б. 28.

[3] Бобожонов Ш. Семема, унинг нутқий воқеланиши ва изоҳли луғатдаги талқини: Филол. фанлари номзоди дис. – Самарқанд, 2004. – Б. 20.

[4] Бозаров Д. Синергетик парадигма. – Тошкент: Тафаккур, 2010. – Б. 92.

[5] Менглиев Б. Тил яхлит система сифатида: Монография. –Тошкент: Ниҳол, 2010. – Б.168.

Резюме. Как бы разнообразны и противоречивы ни были трактовки системы, для них существует абсолютно единая общая основа, признаваемая всеми науками. Это соединение более чем одного элемента системы, основанное на отношениях взаимного требования и отрицания. В лингвистике такую ситуацию можно отличить только по уникальности элемента (объекта). В традиционной систематической теории, наряду с понятиями элементов и отношений, порядок является одной из основных систематических характеристик. Несомненно, системой можно назвать объекты, обладающие внутренним порядком, взаимосвязанными частями и элементами. Речевой процесс не является исключением.

Resume. No matter how diverse and contradictory the interpretations of the system may be, there is an absolutely single common basis for them, recognized by all sciences. This is a connection of more than one element of the system, based on a relationship of mutual demand and negation. In linguistics, such a situation can be distinguished only by the uniqueness of the element (object). In traditional systematic theory, along with the concepts of elements and relations, order is one of the main systematic characteristics. Undoubtedly, a system can be called objects that have an internal order, interconnected parts and elements. The speech process is no exception.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

USLUB ATAMASINING KELIB CHIQISHI VA UNING TIL TARAQQIYOTIDAGI TURLI DAVRLARDA QO'LLANISHI

Babaxanova Dilarom Axmatxanovna,
Namangan davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Har bir individ, ya'ni shaxs tashqi olamdan o'zicha ta'sirlanadi-da, uni o'zicha tushunib, idrok etadi, hamda o'zgaga yetkazishga intiladi.

Kishilar har qanday sharoitda va faoliyatning barcha sohalarida aloqa qilish jarayonida tildagi leksik, frazeologik, grammatik va fonetik vositalarni tanlash va ishlatilishda bir-birlaridan ma'lum darajada farq qiladilar. Ha, umumxalq tili doirasida til vositalarining bunday tanlab olinishi **nutqning** xilma-xil ko'rinishlarining paydo bo'lishiga olib keladi. Nutqning bu xilma-xil ko'rinishlari esa **nutq stillari** deb yuritiladi.[1]

Stil (uslub) asli grekcha «stilas» so'zidan olingan bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi **qalamdir**. Bunday qalam qadim zamonlarda va o'rta asrlarda yozish-chizish quroli bo'lib xizmat qilgan. Insonlar esa o'z fikr-mulohaza shaklini shu qalam vositasida chizganlar.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, u vaqtlarda hozirgiday **qalam, qog'oz** bo'lmagan, balki hozirgidek **qog'oz o'rnida-mum surtilgan taxtakachu, qalam** (ruchka) **o'rnida** – ana **shu** «stil»ni ishlatganlar. Qadimgi greklar mum surtilgan taxtakachlarga shu tayoqcha bilan yozganlar. Xato yozilgan so'z yoki gaplarni tayoqchaning yassi tomoni bilan o'chirib tuzatganlar. Rimliklar ham, hindlar ham, arablar ham bunday tayoqchalardan o'z maqsadlarini ifodalashda foydalanganlar.

Davrlar o'tishi bilan u yoki bu yozuvchining **so'z tanlash, gap tuzish** usulini **stil** deb atay boshlaganlar. **F. Nasriddinov** o'zining «Til, uslub va obraz» maqolasida shunday deydi: «Biz tushungan stil mutlaqo boshqa ma'noda, ya'ni yozuvchining o'ziga xos bo'lgan badiiy mahorati bo'lsa ham, lekin u o'sha genetik ma'no bilan qarindoshlik alomatlarini yo'qotgan emas. Chunki biz ham hozir **stil** deganda u yoki bu yozuvchining yozish yo'li-yo'sinini anglaymiz. Faqat farqi shundaki, bunda yozuvchi yozgan asarlar ko'z-

[1] Shomaqsudov A. va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1983. – B. 9.